

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No5

2026
MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, may.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

STERJEN KO'NDALANG KESIM YUZASI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORNING QISQA TUTASHUV PAYTIDAGI MEXANIK ZO'RIQISHGA CHIDAMLILIGI	10
Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna	
ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ НА РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА.....	19
Мусаева Шоира Азимовна, Муйинжонов Хусейн Алишерович	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНА	28
Габбарова Ильмира Володиевна	
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLUATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH	34
Amirov Shavkat Rahmatullayevich	
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	41
Усманова Азиза Баходировна	
PEREGONDAGI HARAKATNI BOSHQARISH TIZIMLARINI MIKROPROTSESSORLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TUZILMAVIY SXEMASINI ISHLAB CHIQISH.....	46
Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	55
Alimova Dilafrō'z Tohir qizii	
HUDUDLAR KESIMIDA AHOLI O'SISHINING BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	61
Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi	
QUYOSH FOTOELEKTRIK PANELLARI SAMARADORLIGIGA ATROF-MUHIT OMILLARI VA CHAGLANISHNING TA'SIRI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR	67
Botirov Bozorbek, Iskandarova Charos, Avazov Jonibek, Sultonov Abror	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI	75
Rajapov Xayrulla Bekdurdyevich, Sharipova Lobar Umrbek qizi	
INTERPOLATSION TIKLASH ALGORITMLARINING OCR ANIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	82
Aliyev Nodirbek Hamidullo o'g'li	
IKORXONALARDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA INSTITUTSIONAL OMILLARI	90
Muxtorova Shaxlo Farxodovna	
O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARINI EKONOMETRIK PROGNOZLASH.....	94
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
KPI-BASED PERFORMANCE MANAGEMENT AND ITS IMPACT ON EMPLOYEE PRODUCTIVITY	99
Sultanova Kamila Mukhtorali kizi	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	104
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
FARG'ONA VILOYATI MAHALLALARIDA TADBIRKORLIK VA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL OMILLARINI BAHOLASH	110
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	



MHXS STANDARTLARIGA O'TISH: KORXONALAR UCHUN AMALIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	116
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TURMUSH FAROVONLIGINI BAHOLASHNING KO'P O'LCHOVLI USULLARI VA MEZONLARI	120
Turdikulova Moxira Maxmasharifovna	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING MOLIVAVIY-IQTISODIY IMPERATIVLARI	125
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA RO'Y BERISHI MUMKIN BO'LGAN BAXTSIZ HODISALAR VA UNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI	131
Dehqonov Oyatillo Mansurbek o'g'li, Abduraxmanov Abdurashid Ataxanovich	
VTULKA DETALINI ISHLAB CHIQUARISHDA SHTAMPLASH TEXNOLOGIK JARAYONINI ISHLAB CHIQUISH...	136
Abdullayev Fatxulla, Xasanov Kamoliddin, Yolg'ashova Madina, Jo'rayev Muhiddin	
JAHON MOLIVAVIY TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	140
Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.	
KORXONALARDA "TEJAMKOR ISHLAB CHIQUARISH" KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJIRIBASI	144
Mamasoliyev G'ayratbek Maxamadyusupovich	
HUDUDYIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MAHSULOT EKSPORTINI DIVERSIFIKATSIYALASH YO'LLARI	149
Mamadjanova Tuyg'unoy Axmadjanovna	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA ISHLAB CHIQUARISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ASOSIDA YUQORI QO'SHILGAN QIYMATLI MAHSULOTLAR ULUSHINI KENGAYTIRISH	154
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	
AHOLINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MIKROLOYIHALARNING O'RNI	159
Irgashev Anvar Farxodovich	
XALQARO KOMPANIYALARDA INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	166
Raxmankulov Sherzod Shokirovich	
ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА ДЕГРАДАЦИИ КОМПОНЕНТОВ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ МОДУЛЕЙ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ КЛИМАТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ: ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР	171
Дыскин Валерий Григорьевич, Курбанов Юнус Муртаза угли, Жубаназаров Ринат Шапагат Улы	
RIVOJLANGAN DAVLATLARDA CHIQUINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI	177
O'tbosarov Abrorbek Adxamjon o'g'li	
DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARI ICHKI AUDITORLARINING PROFESSIONAL AXLOQ QOIDALARINI ISHLAB CHIQUISH.....	182
Xamidova Zarifa Urol qizi	
AUDIT JARAYONIDA DALIL OLISH VA UNING MUAMMOLARI	189
Ro'zmetov Mansur	
O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY TURIZMNI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	193
Shaydulova Marjona Alisher qizi	
KORXONALARNING MOLIVAVIY HOLATINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR VA ULARNING MOLIVAVIY TAHLILI AHAMIYATI.....	198
Rizoyev Farrux Hikmatilloevich	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK SANOAT ZONALARIDA IQTISODIY SALOHİYATNI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI.....	203
Turaboev Ibroxim Ismoil o'g'li	
ISSIQLIK TEXNIKASIDA IKKILAMCHI BUG'DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	208
Komilova Nodira Abdirahmon qizi	



СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УСЛОВИЯХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ РЕФОРМ	218
Юсупов Зойиржон Ровшан угли, Жумаев Улугбек Нодирбекович	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ УПРАВЛЕНИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ КОМПАНИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ ЛОГИСТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ	224
Тожалиев Шохрух Талип ўғли	
GAMES ARE A POWERFUL TOOL FOR IMPROVING LANGUAGE LEARNING	229
Kulakhmedova Gulnora Abdurahimovna	
O'ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINING INNOVATSION XIZMATLARI ORQALI KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISH	234
Azlarova Aziza Axrorovna	
AVTOMOBIL SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINI BOSHQARISH VA RISKLARNI KAMAYTIRISH MEKANIZMLARI	241
Marufxanov Davron Hasanovich	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING YANGI IMKONIYATLARI: 2026-YIL ISLOHOTLARI VA ISTIQBOLLARI	249
Isakjanova Saboxat Muhamedovna	
MINTAQA IQTISODIYOTI VA SANOATNING RIVOJLANISHI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNING NAZARIY YONDASHUVLARI	256
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISHNI JORIY ETISHDA ASOSIY MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH YO'LLARI	261
Anvar Deberdiyev	
RAQAMLI XIZMATLARNING O'ZBEKISTON TASHQI SAVDO BALANSIDAGI O'RNI	265
Latipova Shaxnoza Maxmudovna, Normurodova Zuhra Orzimurod qizi	
TURISTIK KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATINI MOLİYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI	271
Ruzibayeva Nargiza Hakimovna	
IQTISODIY TIZIMDA TADBIRKORLIK VA TADBIRKORLIK QOBILIYATIGA YANGICHA YONDASHUV	276
Tadjiev Bexzod Umidjanovich	
OTMNI MOLİYAVIY TA'MINLASHNING INNOVATSION MOLİYAVIY MODELLARI	283
Tuxliyev Bozor Karimovich	
TOG'-KON SANOATI KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIMLARNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	286
Abirova Nargizabonu	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	291
Ro'ziyeva Maftuna Yusufvna	
OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARINING MOLİYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA IQTISODIY KO'RSATKICHLAR DINAMIKASINING EMPIRIK TAHLILI	296
Sharipova Shahlo Istamovna	

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA IQTISODIY KO'RSATKICHLAR DINAMIKASINING EMPIRIK TAHLILI

Sharipova Shahlo Istamovna

Renessans universiteti, Matematika va tabiiy fanlar kafedrası

katta o'qituvchisi

E-mail: sh_sharipova@renessans-edu.uz

ORCID: 0009-0001-0550-7447

Annotatsiya. Mazkur maqolada ommaviy axborot vositalari korxonalarining moliyaviy barqarorligini baholashda iqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasini empirik tahlil qilish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda likvidlik, rentabellik, moliyaviy mustaqillik, pul oqimlari, daromadlar diversifikatsiyasi hamda raqamli monetizatsiya ulushi kabi ko'rsatkichlarning o'zgarish tendensiyalari tizimli ravishda tahlil qilindi. Maqolada OAV korxonalarining moliyaviy barqarorligini baholash uchun integral indeks yondashuvi taklif etilib, iqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi asosida barqarorlik darajasini aniqlash mezonlari ishlab chiqildi. Tahlil natijalari media korxonalarining moliyaviy barqarorligi daromad manbalari tarkibi, xarajatlar samaradorligi, operatsion pul oqimlari va raqamli transformatsiya sur'atlari bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ommaviy axborot vositalari, media korxonalari, moliyaviy barqarorlik, iqtisodiy ko'rsatkichlar, empirik tahlil, likvidlik, rentabellik, pul oqimi, raqamli monetizatsiya, integral indeks.

Аннотация. В статье исследуются вопросы эмпирического анализа динамики экономических показателей при оценке финансовой устойчивости предприятий средств массовой информации. Рассмотрены тенденции изменения ликвидности, рентабельности, финансовой независимости, денежных потоков, диверсификации доходов и доли цифровой монетизации. Предложен интегральный индекс оценки финансовой устойчивости медиапредприятий, а также определены критерии интерпретации уровня устойчивости на основе динамики финансово-экономических показателей. Результаты исследования показывают, что финансовая устойчивость СМИ тесно связана со структурой доходов, эффективностью затрат, стабильностью операционных денежных потоков и темпами цифровой трансформации.

Ключевые слова: средства массовой информации, медиапредприятия, финансовая устойчивость, экономические показатели, эмпирический анализ, ликвидность, рентабельность, денежный поток, цифровая монетизация, интегральный индекс.

Abstract. This article examines the empirical analysis of the dynamics of economic indicators in assessing the financial stability of mass media enterprises. The study analyzes trends in liquidity, profitability, financial independence, cash-flow stability, revenue diversification, and the share of digital monetization. An integrated index approach is proposed to evaluate the financial stability of media enterprises, and criteria are developed for interpreting the level of stability based on financial and economic indicators. The results indicate that the financial resilience of media companies is closely related to revenue structure, cost efficiency, operating cash flows, and the pace of digital transformation.

Keywords: mass media, media enterprises, financial stability, economic indicators, empirical analysis, liquidity, profitability, cash flow, digital monetization, integrated index.

KIRISH

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ommaviy axborot vositalari korxonalari faoliyatining iqtisodiy mazmuni sezilarli darajada transformatsiyalanib bormoqda. An'anaviy reklama tushumlariga tayangan media biznes modeli bugungi kunda raqamli platformalar, obuna xizmatlari, kontent monetizatsiyasi, multimedia mahsulotlari



hamda auditoriya ma'lumotlariga asoslangan boshqaruv tizimlari bilan uyg'unlashmoqda¹. Bunday sharoitda OAV korxonalarining moliyaviy barqarorligini faqat foyda ko'rsatkichi yoki reklama daromadlari hajmi orqali baholash yetarli emas. Moliyaviy barqarorlikni baholashda iqtisodiy ko'rsatkichlarning vaqt bo'yicha o'zgarish dinamikasi, ularning o'zaro bog'liqligi hamda media korxonasi faoliyatiga ta'sir darajasini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

OAV korxonalari iqtisodiy faoliyatining o'ziga xos jihati shundaki, ular bir vaqtning o'zida ham ijtimoiy axborot institutlari, ham iqtisodiy qiymat yaratuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar sifatida faoliyat olib boradi. Media korxonalarining moliyaviy natijalari auditoriya ishonchi, kontent sifati, reklama bozoridagi mavqe, raqamli tarqatish kanallari hamda xarajatlar samaradorligi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli moliyaviy barqarorlikni empirik tahlil qilishda nafaqat buxgalteriya ko'rsatkichlari, balki bozor, texnologik va boshqaruv omillarini ham kompleks tarzda hisobga olish zarur hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi OAV korxonalarida daromad manbalari tarkibining diversifikatsiyalanishi, raqamli reklama ulushining ortib borishi, obuna va pullik kontent modellarning rivojlanishi, shuningdek, innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi bilan izohlanadi. Mazkur jarayonlar media korxonalarining likvidligi, rentabelligi, moliyaviy mustaqilligi hamda pul oqimlari barqarorligini mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, iqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasini empirik tahlil qilish media korxonalarining real iqtisodiy holatini baholash, ularning raqobatbardoshligini oshirish hamda istiqboldagi rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy asos vazifasini bajaradi.

Mazkur maqolaning maqsadi ommaviy axborot vositalari korxonalarining moliyaviy barqarorligini baholashda iqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasini empirik tahlil qilish, baholash indikatorlarini tizimlashtirish hamda media korxonalari uchun moliyaviy barqarorlikni oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Media iqtisodiyoti bo'yicha ilmiy qarashlarda OAV korxonalari ikki tomonlama bozor subyekti sifatida talqin etiladi. Robert G. Picard media korxonasining iqtisodiy tabiatini auditoriya va reklama beruvchilar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar orqali izohlaydi. Mazkur yondashuvga ko'ra, media korxonasining moliyaviy barqarorligi nafaqat mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari va daromadlar nisbatiga, balki auditoriya qamrovi, kontent sifati hamda reklama bozoridagi raqobatbardoshlik darajasiga ham bevosita bog'liq hisoblanadi.

Alan B. Albarran media bozorlarining iqtisodiy xususiyatlarini tahlil qilar ekan, OAV korxonalarida daromadlarni diversifikatsiya qilish va xarajatlarni moslashuvchan boshqarish moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi muhim omillardan biri ekanligini ta'kidlaydi. Raqamli media muhitida ushbu masalaning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Chunki an'anaviy reklama tushumlari bilan bir qatorda obuna xizmatlari, video monetizatsiyasi, homiylik kontenti, maxsus loyihalar hamda raqamli xizmatlar media korxonalarining asosiy moliyaviy manbalaridan biriga aylanmoqda.

Korporativ moliya nazariyasida moliyaviy barqarorlik korxonaning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish qobiliyati, rentabellikni barqaror saqlashi, kapital tuzilmasini oqilona shakllantirishi hamda pul oqimlarini samarali boshqarishi bilan izohlanadi. Aswath Damodaran korxona qiymati va moliyaviy barqarorligi operatsion pul oqimlari, qarz yuklamasi hamda investitsion qarorlar sifati bilan chambarchas bog'liqligini asoslaydi. OAV korxonalari faoliyatida bu holat reklama tushumlari, kontent ishlab chiqarish tannarxi, texnologik investitsiyalar hamda auditoriya monetizatsiyasi orqali namoyon bo'ladi.

Moliyaviy barqarorlikni baholashda Edward Altman tomonidan ishlab chiqilgan ko'rsatkichlar tizimi va integral baholash yondashuvlari korxonaning moliyaviy holatini kompleks tahlil qilishda muhim metodologik asos sifatida e'tirof etiladi. Garchi klassik modellarning ayrim jihatlari media korxonalari faoliyatiga to'liq moslashmagan bo'lsa-da, ular likvidlik, rentabellik, aktivlar aylanishi hamda moliyaviy mustaqillik kabi indikatorlarni kompleks ravishda baholash zarurligini ko'rsatadi.

Raqamli iqtisodiyot bo'yicha Organisation for Economic Co-operation and Development, PwC hamda Reuters Institute for the Study of Journalism tadqiqotlarida media bozorlarida auditoriya xulq-atvori, raqamli platformalar ta'siri, obuna modeli va kontent monetizatsiyasi moliyaviy natijalarning muhim omillari sifatida talqin qilinadi. O'zbekiston sharoitida esa "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish hamda raqamli xizmatlar ulushini oshirish uchun muhim institutsional asos yaratmoqda. Mazkur holat OAV korxonalarida moliyaviy barqarorlikni baholashda raqamli iqtisodiy ko'rsatkichlarni alohida va tizimli ravishda tahlil qilish zaruratini yanada kuchaytiradi.

1 World Bank World Development Report 2021: Data for Better Lives. — Washington, DC: World Bank, 2021.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil, dinamik tahlil, qiyosiy baholash, iqtisodiy koeffitsiyentlar usuli, indekslash hamda integral baholash yondashuvlaridan foydalanildi. OAV korxonalarining moliyaviy barqarorligi likvidlik, rentabellik, moliyaviy mustaqillik, pul oqimlari barqarorligi, daromadlar diversifikatsiyasi hamda raqamli monetizatsiya ulushi kabi ko'rsatkichlar orqali baholandi.

Empirik tahlilda 2020–2024-yillar kesimida OAV korxonalari faoliyatiga xos bo'lgan umumlashtirilgan iqtisodiy indikatorlar dinamikasi ko'rib chiqildi. Real korxonalar kesimidagi yopiq moliyaviy hisobotlardan foydalanish imkoniyati cheklangan sharoitda baholash modeli media korxonalari moliyaviy holatini tahlil qilishda qo'llaniladigan tipik iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida shakllantirildi. Mazkur yondashuv OAV korxonalarining moliyaviy barqarorligini baholash algoritmini ishlab chiqish hamda indikatorlar o'rtasidagi iqtisodiy bog'liqlikni ilmiy jihatdan izohlash imkonini berdi.

Moliyaviy barqarorlikni integral baholash quyidagi mezonlarga asoslandi: birinchidan, ko'rsatkichlarning vaqt bo'yicha o'zgarish dinamikasi; ikkinchidan, qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash imkoniyati; uchinchidan, foyda va aktivlar samaradorligi; to'rtinchidan, qarz yuklamasi hamda o'z mablag'lari nisbati; beshinchidan, raqamli daromadlar ulushi va daromadlar tarkibining diversifikatsivalanganlik darajasi.

$$IMBI = 0.20L + 0.20R + 0.20P + 0.15M + 0.15D + 0.10Q$$

Bu yerda L — likvidlik ko'rsatkichi, R — rentabellik darajasi, P — pul oqimlari barqarorligi, M — moliyaviy mustaqillik, D — daromadlar diversifikatsiyasi, Q — raqamli monetizatsiya ulushini anglatadi. Indeks qiymati 0 dan 1 gacha oraliqda baholanib, 0,60 dan yuqori natija nisbatan barqaror holatni, 0,75 dan yuqori natija esa yuqori moliyaviy barqarorlik darajasini ifodalashi asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

OAV korxonalarining moliyaviy barqarorligini empirik baholashda iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimini to'g'ri tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Media korxonalari uchun asosiy indikatorlar qatoriga joriy likvidlik koeffitsiyenti, aktivlar rentabelligi, operatsion pul oqimlari, qarz yuklamasi, daromadlar diversifikatsiyasi hamda raqamli tushumlar ulushi kiradi. Mazkur indikatorlar korxonaning qisqa muddatli to'lov qobiliyati, uzoq muddatli moliyaviy mustaqilligi va bozor tebranishlariga moslashuvchanligini ifodalaydi (1-jadval).

1-jadval

OAV korxonalarining moliyaviy barqarorligini baholash indikatorlari²

Ko'rsatkichlar guruhi	Asosiy indikator	Iqtisodiy mazmuni	Barqarorlikka ta'siri
Likvidlik	Joriy likvidlik koeffitsiyenti	Qisqa muddatli aktivlarning qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati	To'lov qobiliyatini ifodalaydi
Rentabellik	Aktivlar rentabelligi va sotuv rentabelligi	Foydaning aktivlar yoki tushumga nisbatan samaradorligi	Kapital qaytimi va iqtisodiy samaradorlikni oshiradi
Pul oqimlari	Operatsion pul oqimi koeffitsiyenti	Asosiy faoliyatdan shakllangan pul oqimlari barqarorligi	Faoliyat uzluksizligini ta'minlaydi
Moliyaviy mustaqillik	Qarz yuklamasi va o'z mablag'lari ulushi	Kapital tarkibida qarz va o'z mablag'lari nisbati	Moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi
Diversifikatsiya	Daromad manbalari tarkibi	Reklama, obuna, raqamli xizmatlar va maxsus loyihalar ulushi	Bozor risklarini diversifikatsiya qiladi
Raqamli monetizatsiya	Raqamli daromadlar ulushi	Onlayn reklama, video, pullik kontent va platformaviy tushumlar	Raqamli transformatsiya samaradorligini ifodalaydi

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, OAV korxonalarining moliyaviy barqarorligi ko'p mezonli baholashni talab etadi. Chunki media korxonalarining daromad modeli nafaqat reklama tushumlariga, balki auditoriya bilan ishlash samaradorligi, kontent monetizatsiyasi, texnologik moslashuvchanlik hamda xarajatlar samaradorligiga ham bevosita bog'liqdir. Shu sababli tahlil jarayonida har bir ko'rsatkichning alohida holati bilan bir qatorda ularning

2 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



o'zaro bog'liqligi va umumiy dinamikasi ham kompleks tarzda baholanishi zarur.

2020–2024-yillar kesimidagi iqtisodiy indikatorlar dinamikasi OAV korxonalarida raqamli daromadlar ulushi ortib borishi bilan moliyaviy barqarorlikning asosiy ko'rsatkichlari ham ijobiy tendensiyanı namoyon etayotganini ko'rsatadi. Xususan, joriy likvidlik koeffitsiyentining o'sishi qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash imkoniyatlari kengayib borayotganini bildiradi. Aktivlar rentabelligining oshishi esa mavjud resurslardan foydalanish samaradorligi yuksalayotganini ifodalaydi (2-jadval).

2-jadval

OAV korxonalarida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi³

Yillar	Daromad indeksi (2020=100)	Joriy likvidlik	Aktivlar rentabelligi, %	Qarz yuklamasi	Raqamli daromadlar ulushi, %
2020	100,0	1,20	4,2	0,58	22,0
2021	108,5	1,26	4,8	0,55	27,4
2022	117,3	1,33	5,4	0,52	34,8
2023	128,6	1,41	6,2	0,49	43,2
2024	141,9	1,52	7,1	0,45	52,6

2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, tahlil qilinayotgan davrda OAV korxonalarida daromadlar indeksi 2020-yildagi 100,0 birlikdan 2024-yilda 141,9 birlikka qadar oshgan. Mazkur holat media korxonalarida raqamli kanallar orqali daromad olish imkoniyatlari kengayganini hamda kontentni tarqatish va monetizatsiya qilish shakllari diversifikatsiyalanayotganini anglatadi. Shu bilan birga, raqamli daromadlar ulushining 22,0 foizdan 52,6 foizga yetgani media biznes modelida tarkibiy transformatsiya jarayonlari jadallashganini ko'rsatadi.

Joriy likvidlik koeffitsiyenti 2020-yilda 1,20 ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 1,52 ga yetgan. Bu esa qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash imkoniyatlari mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi. Aktivlar rentabelligining 4,2 foizdan 7,1 foizgacha oshishi aktivlardan foydalanish samaradorligi ortayotganini ifodalaydi. Shuningdek, qarz yuklamasining 0,58 dan 0,45 gacha pasayishi moliyaviy mustaqillik darajasining kuchayib borayotganini hamda korxonalarning ichki moliyaviy resurslardan samaraliroq foydalanayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, OAV korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash jarayoni raqamli transformatsiya bilan uzviy bog'liq holda rivojlanmoqda. Raqamli daromadlar hajmining ortishi bilan bir qatorda texnologik infratuzilma, dasturiy ta'minot, kiberxavfsizlik, multimedia mahsulotlarini ishlab chiqish hamda malakali kadrlarni tayyorlash yo'nalishlarida investitsion faollik kuchaymoqda. Shu sababli raqamli transformatsiya samaradorligini baholashda daromadlar hajmi bilan bir qatorda xarajatlar samaradorligi, operatsion pul oqimlari barqarorligi hamda investitsiyalarning iqtisodiy qaytimi kabi omillarni ham kompleks ravishda hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi (3-jadval).

3-jadval

Integral moliyaviy barqarorlik indeksining baholanishi⁴

Yillar	IMBI qiymati	Barqarorlik darajasi	Asosiy ijobiy omil	Asosiy rivojlanish omili
2020	0,51	O'rtacha	Raqamli kanallarning shakllanishi	Reklama bozori diversifikatsiyasi imkoniyatlari
2021	0,56	O'rtacha	Likvidlikning yaxshilanishi	Daromad manbalarini kengaytirish istiqbollari
2022	0,63	Nisbatan barqaror	Raqamli tushumlar ulushining ortishi	Texnologik modernizatsiyani kuchaytirish
2023	0,71	Barqaror	Rentabellik va pul oqimlarining o'sishi	Platformalar bilan integratsiyani rivojlantirish
2024	0,80	Yuqori barqaror	Diversifikatsiyalangan monetizatsiya	Raqobatbardosh kontent strategiyalarini kengaytirish

3-jadval natijalariga ko'ra, integral moliyaviy barqarorlik indeksi 2020-yildagi 0,51 dan 2024-yilda 0,80 gacha oshgan. Mazkur holat OAV korxonalarida moliyaviy holatning bosqichma-bosqich mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2022-yildan boshlab raqamli daromadlar ulushining ortishi, xarajatlar tarkibini

³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

⁴ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

optimallashtirish hamda pul oqimlarini samarali rejalashtirish amaliyoti moliyaviy barqarorlikka sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Empirik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, media korxonalarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi eng muhim omillardan biri daromadlar tarkibini diversifikatsiya qilish hisoblanadi. Agar korxona daromadlarining asosiy qismi faqat reklama bozoriga bog'liq bo'lsa, iqtisodiy sikllar, reklama byudjetlaridagi o'zgarishlar yoki platforma algoritmlarining yangilanishi uning moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aksincha, reklama, obuna xizmatlari, pullik kontent, video monetizatsiya, maxsus media loyihalar hamda raqamli xizmatlar o'rtasida muvozanat shakllantirilsa, korxonaning bozor sharoitlariga moslashuvchanligi va iqtisodiy barqarorligi yanada ortadi.

Ikkinchi muhim omil — operatsion pul oqimlari barqarorligidir. OAV korxonalarida daromadlar ayrim hollarda mavsumiy tebranishlarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, reklama tushumlari muayyan davrlarda ortib, boshqa davrlarda nisbatan sekinlashadi. Shu sababli pul oqimlarini oylar va choraklar kesimida samarali rejalashtirish, likvid zaxiralarni shakllantirish hamda xarajalar muddatlarini daromadlar kirimi bilan muvofiqlashtirish moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Uchinchi omil — raqamli transformatsiyaning moliyaviy samaradorligidir. Raqamli texnologiyalar kontentni keng auditoriyaga yetkazish, foydalanuvchilarni segmentlash, reklama samaradorligini oshirish hamda obuna modelini rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ushbu jarayon innovatsion investitsiyalarni talab qiladi. Shu sababli texnologik investitsiyalarni baholashda ularni qisqa muddatli xarajat sifatida emas, balki uzoq muddatli daromad manbalarini kengaytiruvchi strategik aktiv sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

To'rtinchi omil — tahririy qiymat va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi muvozanatdir. Media korxonalari moliyaviy natijalarni yaxshilash bilan bir qatorda axborot sifati, xolislik, ishonchlilik hamda ijtimoiy mas'uliyat tamoyillarini ham saqlab qolishi zarur. Chunki auditoriya ishonchi yuqori bo'lgan sharoitda media korxonasining uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligi va bozor mavqei yanada mustahkamlanadi.

Umuman olganda, empirik tahlil natijalari OAV korxonalarining moliyaviy barqarorligi iqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasining o'zaro uyg'unlashgan holatida shakllanishini tasdiqlaydi. Likvidlik, rentabellik hamda moliyaviy mustaqillik ko'rsatkichlarining ijobiy o'sishi media korxonalarining ichki moliyaviy salohiyatini mustahkamlasa, raqamli daromadlar ulushi va daromadlar diversifikatsiyasi ularning tashqi bozor sharoitlariga moslashuvchanligini oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ommaviy axborot vositalari korxonalarining moliyaviy barqarorligini baholashda iqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasini empirik tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, OAV korxonalarining barqaror moliyaviy rivojlanishi likvidlik, rentabellik, pul oqimlari, moliyaviy mustaqillik, daromadlar diversifikatsiyasi hamda raqamli monetizatsiya ulushi kabi ko'rsatkichlarning izchil yaxshilanib borishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Maqola natijalaridan kelib chiqib, OAV korxonalari uchun quyidagi yo'nalishlarning ustuvor ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi: daromad manbalarini diversifikatsiya qilish; obuna va pullik kontent modellarini bosqichma-bosqich rivojlantirish; reklama tushumlari tarkibini muvozanatlashtirish; operatsion pul oqimlarini samarali rejalashtirish; texnologik investitsiyalar samaradorligini baholash; moliyaviy dashboard va analitik tizimlarni joriy etish; auditoriya ishonchini uzoq muddatli iqtisodiy resurs sifatida boshqarish.

Umumlashtirib aytganda, OAV korxonalarining moliyaviy barqarorligi an'anaviy moliyaviy koeffitsiyentlar bilan bir qatorda raqamli iqtisodiyotga xos indikatorlar asosida ham baholanishi lozim. Empirik yondashuv media korxonalarining real iqtisodiy holatini aniqlash, moliyaviy barqarorlik omillarini baholash hamda uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda samarali ilmiy-uslubiy vosita sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-son Farmoni. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. — 2020-yil 5-oktabr. <https://lex.uz/docs/-5030957>
2. Robert G. Picard Media Economics: Concepts and Issues. — London: Sage Publications, 2018.
3. Alan B. Albarran Media Economics: Understanding Markets, Industries and Concepts. — Ames: Iowa State University Press, 2017.
4. Aswath Damodaran Applied Corporate Finance. — New York: Wiley, 2014.
5. Edward Altman Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy. — Journal of Finance, 1968.
6. Robert S. Kaplan, David P. Norton The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. — Boston: Harvard Business School Press, 1996.
7. World Bank World Development Report 2021: Data for Better Lives. — Washington, DC: World Bank, 2021.
8. UNESCO World Trends in Freedom of Expression and Media Development. — Paris: UNESCO Publishing, 2022.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100